

**SIYDIK-TOSH KASALLIGINI DAVOLASH VA GEMOPOEZNI  
TIKLASHDA YOVVOYI HOLDA O`SUVCHE DORIVOR RO`YAN  
O`SIMLIGIDAN FOYDALANISH, HAMDA MADANIYLASHTIRISH**

*Qurbanov Nuriddin Panji o`g`li*

*Central Asian Medical University Anatomy and micro anatomy  
kafedra assistant. Farg`ona*

*Raqibov Faxriddin Abdumuxtorovich*

*Central Asian Medical University Anatomy and micro anatomy  
kafedra assistant Farg`ona*

**Annotatsiya:** Tajribada oq kalamushlarda sun`iy tarzda gemolitik kamqonlik kasalligini yuzaga keltirib chiqarish uchun 3 kun mobaynida 30mg/kg fenilgidrazin qorin bo`shlig`iga yuborildi va 5 kun kutildi. Shundan so`ng 6 kun davomida bo`yoqdor ro`yandan tayyorlangan damlama 0.2mgdan 0.5ml hajmda qorin bo`shlig`iga kuniga 1 mahal yuborilib olingan natijalar Styudent va Fisher usulida tahlil qilinib, antilelo hosil qiluvchi hujayralar soni haqqoniy ravishda 2.6 marta kamayganligi va bo`yoqdor ro`yan damlamasi yuborilgandan so`ng antilelo hosil qiluvchi hujayralar soni haqqoniy ravishda 3.6 marta oshganligi aniqlangan.

**Kalit so`zlar:** siydiq-toshlari, bo`yoqdor ro`yan, gemolitik kamqonlik, ikkilamchi immuntanqislik.

Siydik-tosh kasalligi dunyo aholisi orasida keng tarqalgan va hayot sifatiga ta'sir qiluvchi, sog'liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo bo'lgan kasallikdir. Siydiq-tosh kasalligi siydikning minerallarga haddan tashqari to'yinishi natijasida hosil bo'ladi. Bu buyraklar ichida kristal hosil bo'lishiga, uning o'sishiga, to'planishiga va saqlanishiga olib keladi. Bu kasallik dunyo aholisining taxminan 1-15 %da uchraydi. Dunyo bo'yicha buyrak tosh kasalligining tarqalish darajasida juda ko'p farqlar mavjud, shunga ko'ra bu ko'rsatkich Osiyoda 1-5%, Evropada 5-9% va Shimoliy Amerikada 7-15% ni tashkil qiladi. Saudiya Arabiston aholisining qariyb 20% buyrak tosh kasalligidan aziyat cheksa, bu kasallik Xitoy aholisining atigi 4 %da uchraydi. Siydiq-tosh kasalligi bilan bog'liq xavf omillari aholining turli qatlamlarida bir-biridan farq qiladi va ularning patogenezida atrof-muhit omillari asosiy rol o'ynaydi. Urologik bemorlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, buyrak toshlarining paydo bo'lishi aholining jinsi, irqi, geografik mintaqasi, kasbi, issiq iqlim, noto'g'ri ovqatlanish (kofein, tuz, sut mahsulotlari, hayvon oqsillari va yog'larni ortiqcha iste'mol qilish) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari zararli odatlar, semizlik, kam suyuqlik iste'mol qilish, suvsizlanish, suv sifati, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, D va C vitaminlarini ko'p iste'mol qilish, genetik fon va metabolik kasalliklar (qandli diabet,

gipertoniya, surunkali buyrak kasalligi va yurak-qon tomir kasalliklari) ham buyrak tosh kasalliklarining rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Epidemiologik nuqtayi nazardan, ayollarning taxminan 5% va erkaklarning 12% hayotlari davomida siydi-k-tosh kasalligiga duchor bo'lishadi. [1]

Bo`yoq dor ro`yan Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining dalalarida, bog`larda va ariq bo`ylarida o`sadigan, bo`yi 50-100 smga yetadigan ko`p yillik o`t o`simlik hisoblanadi. Poyasi 4 qirrali bo`g`imli va shohlangan. Bargi lansetsimon yoki tuxumsimon, qisqa bandi bilan poyada 4-6 tadan halqasimon joylashgan. Gullari barg qo`ltig` ida o`sib chiqqan yarim soyabonga to`plangan ro`vaksimon gulto`plamli. Mevasi qora dumaloq sershira ho`l meva. Iyun oylarida gullaydi mevasi iyul avgust oylarida pishadi. O`simlik ildizi bahorda yoki kuzda kovlanadi, tuproqdan tozalanib, suv bilan yuviladi, ochiq havoda quritiladi. Ro`yan ildizi tarkibida antraglikazidlar, organik kislotalar, qandlar, bo`yoq va boshqa moddalar bor.

Abu Ali ibn Sino ro`yan ildizidan tayyorlangan qaynatmani jigar va qora jigar shishi, hamda siydiq haydovchi dori sifatida ishlatgan. Asal qo`shilgan suvda tayyorlangan ildiz qaynatmasi bilan quymich nervining yallig`lanish kasalligini va falajlikni davolashda tavsiya etgan. Xalq tabobatida ro`yan ildizidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama buyrak va o`t yo`llaridagi toshlarni tushurish uchun, podagra kasalligini davolashda va siydiq haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Asal qo`shilgan ildiz qaynatmasini zehn pasayganda, yuqumli gepatit kasalligida ichiladi. Ro`yan o`simligi siydiq haydash va spazmolitik og`riqlar (buyrak va siydiq yo`llari sanchig`i va boshqalar) ni qoldirish ta`siriga ega. Ro`yan ildizidan tayyorlangan quruq ekstrakt ilmiy tibbiyotda buyrak, qovuq, siydiq yo`llardagi toshlarni tushirish uchun ham ishlatiladi. [2]

Biz ko`ngilli bemorlarda bo`yoq dor ro`yan o`simligi ildizidan tayyorlangan damlama bilan kichik o`lchamli yumshoq toshlarni tushurishni sinovdan o`tkazdik. Shuningdek lobatoriya hayvonlarida bo`yoq dor ro`yanning yana bir dorivorlik xususiyatini o`rgandik. Tajribada oq kalamushlarda sun`iy tarzda fenilgidrazin ta`sirida gemolitik kamqonlik kasalligi yuzaga keltirib chiqarib, uni bo`yoq dor ro`yan o`simligining bargidan tayyorlangan damlama bilan davo muolajalarini olib bordik.

Kasallik keltirib chiqarilgan labaratoriya hayvonlari qonidagi eritrositlar va leykositlar soni sezilarli darajada qayta tiklanganligi hamda oshganligi aniqlandi.

O`tkazilgan tajribaning qisqacha mazmuni:

Tajriba uch-to`rt oylik, og`irligi 140 gramm bo`lgan oq kalamushlarda o`tkazildi. Tajriba hayvonlarini uch guruhga bo`lib, har bir guruh 6ta oq kalamushdan iborat bo`ldi.

1-nazorat guruhi,

2-kamqonlik keltirib chiqarilgan guruh,

3-kamqonlik keltirib chiqarilgan va bo`yoqdor ro`yandan tayyorlangan damlama yuborilgan guruh.

2 va 3-guruh kalamushlariga 3 kun mobaynida 30mg/kg fenilgidrazin qorin bo`shlig`iga yuborildi va 5 kun kutildi. Shundan so`ng 6 kun davomida bo`yoqdor ro`yandan tayyorlangan damlama 0.2mgdan 0.5ml hajmda 3-guruh kalamushlari qorin bo`shlig`iga kuniga 1 mahal yuborildi. Immun javobni olish uchun  $2 \times 10^8/\text{ml}$  hajmda qo`y eritrositlari bilan immunizatsiya qilindi va Jerne va Nordin usulida aniqlandi. Olingan natijalar Styudent va Fisher usulida tahlil qilindi. 2-guruh kalamushlari talog`ida antilelo hosil qiluvchi hujayralar soni haqqoniy ravishda 2.6 marta kamayganligi aniqlandi.

3-guruh kalamushlari talog`ida antitelo hosil qiluvchi hujayralar soni bo`yoqdor ro`yan damlamasini yuborilganligi hisobiga haqqoniy ravishda 3.6 marta oshganligi aniqlandi. (1 jadval)

Tajriba olingan natija va muhokama:

1-jadval

Guruh	Preparat	Taloqdagi antitelo hosil qiluvchi hujayralar soni	Farqi
Nazorat	-	$4358 \pm 141.7$	
Kamqonlik	Fenilgidrozin	$1683 \pm 100.0^a$	-2.6
Kamqonlik	Fenilgidrozin+ro`yan	$6041.7 \pm 291.7^b$	3.6

Izoh: <sup>a</sup> -nazorat guruhiga nisbatan haqqoniylik, <sup>b</sup> kamqonlik guruhiga nisbatan haqqoniylik.

Tajriba davomida gemopoez hujayralariga bo`yoqdor ro`yan ta`siri o`rganildi. Nazorat guruhiga hayvonlari periferik qonida eritrositlar soni  $7.6 \pm 0.6 \times 10^9/\text{ml ni}$  tashkil etdi. Fenilgidrazin yuborilgan hayvonlar periferik qonidagi eritrositlar soni haqqoniy ravishda 1.7 marta kamayganligi va 3-guruh kalamushlar periferik qonida 1.8 marta ko`payganligi kuzatildi. Hayvonlar periferik qonidagi leykositlar soni ham nazorat guruhiga nisbatan 2 guruh hayvonlarda 1.8 marta kamayganligi va 3-guruh hayvonlarda esa 1.7 marta ko`payganligi aniqlandi. (2 jadval).

2-jadval

Guruh	Preparat	Eritrositlar $\times 10^9/\text{ml}$	Farqi	Leykositlar $\times 10^6/\text{ml}$	Farqi
Nazorat	-	$7.6 \pm 0.6$		$10.7 \pm 0.2$	
Kamqonlik	Fenilgidrozin	$4.5 \pm 0.6^a$	-1.7	$5.8 \times 0.8^a$	-1.8
Kamqonlik	Fenilgidrozin+ro`yan	$8.2 \times 0.4^b$	1.8	$9.6 \times 0.8^b$	1.7

Izoh: <sup>a</sup> -nazorat guruhiga nisbatan haqqoniylik, <sup>b</sup> kamqonlik guruhiga nisbatan haqqoniylik.



1.Tajribada fenilgidazin ta`sirida immuntanqislik holati kuzatilib qo`y eritrositlariga nisbatan antitelo hosil bo`lishi kamayganligi aniqlandi.

2.Dorivor ro`yan o`simligi ta`sirida gemolitik kamqonlik guruhi hayvonlarida antitelo hosil bo`lishi kuchayishi va tiklanishi kuzatildi.

3.Shifobaxsh ro`yan o`simligi periferik qondagi shaklli elementlar soniga sezilarli darajada ta`sir qilishi ya`ni eritrositlar va leykositlar soni tiklanishi aniqlandi.[3]

Xulosa qilib aytganda amaliy tibbiyotda ginekologiya, terapiya, pediatriya, urologiya sohalarida uchraydigan kamqonlikning har xil ko`rinishlarini va siyidik-tosh kasalligida yumshoq kichik o`lchamli buyrak toshlarini tushirishda dorivor ro`yan o`simligidan tayyorlangan qaynatma va damlamalardan muvaffaqiyatli davolashda foydalanish mumkin.

#### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Shani Shastri, Jiten Patel, Kamalanathan K. Sambandam, and Eleanor D. Lederer //Kidney Stone Pathophysiology, Evaluation and Management: Core Curriculum 2023
2. Xolmatov H.X., Habibov Z.H. // O`zbekistonning shifobaxsh o`simliklari // 1976 y [77 bet].
3. Rasulov F.X., Qurbonov N.P, Rohataliyev F.A. // Tajribada gemolitik kamqonlik kasalligini Ro`yan dorivor o`simligi bilan muvofiqlashtirish // TTAFF. “Iqtidorli yoshlar yurt ertasi, kelajak bunyodkori” mavzusidagi ilmiy amaliy anjuman materiallari to`plami // 2019 y 18 aprel [41-42 betlar].